IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

DIPLOMATIYA EVOLYUTSIYASI: AN'ANAVIY FORMATDAN RAQAMLI MODELGA O'TISH JARAYONLARI

Dadaxonov Xusniddin Boxodirjon o'g'li
Diplomat university
Xalqaro munosabatlar kafedrasi 1-bosqich magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20526165

Annotatsiya. Mazkur maqolada diplomatiyaning an'anaviy modeldan raqamli va algoritmik formatga evolyutsiyasi kompleks tahlil qilinadi. Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt vositalarining tashqi siyosatga integratsiyalashuvi diplomatik jarayonlarning mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirayotgani ilmiy asosda yoritiladi.
Kalit so'zlar: diplomatiya, raqamli diplomatiya, algoritmik diplomatiya, sun'iy intellekt, Big Data, soft power, globallashuv.

Kirish. XXI asr boshlaridan xalqaro munosabatlar tizimi chuqur va ko'p qatlamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirib kemoqda. Bu o'zgarishlar markazida globallashuv jaroyonini tezlashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal sur'atda rivojlanishi turibdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni (Big Data) qayta ishlash jarayonlari ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni hamda davlatlarning tashqi siyosat uslublarini ham o'zgartirmoqda. Natijada, diplomatiya yopiq an'anaviy usuldan ochiq, tezkor va raqamli formatga o'tmoqda.

Materaillar va usullar. Maqolaning nazariy va metodologik asosi fanlararo yondashuvga asoslanadi. Diplomatiyada transformasiyalashuv jarayonlari bo'yicha zamonaviy olimlarning asarlarini tadqiq etishda turli usullardan foydalanildi.

Natijalar. Ushbu tadqiqotning maqsadi diplomatiyaning tarixiy rivojlanish jarayonini an'anaviy modeldan raqamli formatga o'tish jarayonini keng qamrovli va tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot diplomatik jarayonlar qanday omillar ta'sirida o'zgarayotganini va bu o'zgarishlarning mohiyati hamda oqibatlarini ochib berishni nazarda tutadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

— diplomatiyaning tarixiy shakllanish jarayoni va an'anaviy nazariy asoslarini o'rganish;
— globallashuv va texnologik inqilobning diplomatik amaliyotga ta'sirini aniqlash;
— raqamli diplomatiya tushunchasini o'rganish va uning asosiy xususiyatlarini belgilash;
— tashqi siyosatda raqamli diplomatiyaning roli haqida fikr yuritish;
— rivojlangan davlatlar tajribasi asosida raqamli diplomatiyaning imkoniyatlarii va xavflarini baholash.

Shunday qilib, tadqiqot diplomatiyaning nafaqat shakliy o'zgarishini, balki uning mazmuniy va institutsional o'zgarishini ham yoritishga qaratilgan.

Munozara. Diplomatiya bugungi kunda chuqur tuzilmaviy o'zgarish jarayonini boshdan kechirmoqda. Biroq ushbu o'zgarishlarning mohiyatini to'liq anglash uchun, avvalo, an'anaviy diplomatiyaning qanday nazariy asoslarga tayanganini va tarixiy jihatdan qanday shakllanganini tahlil qilish zarur. Zero, raqamli diplomatiya klassik diplomatiyani inkor qilmaydi, balki uning tarixiy rivojlanish bosqichining davomi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Diplomatiya — davlatlararo munosabatlarda milliy manfatlaorni himoya qilish shakli sifatida namayon bo'ladi. Diplomatiya termini qadimgi yunonchada "diplōma" — "ikki buklangan hujjat" so'zidan kelib chiqqan, dastlab hukmdorlar tomonidan berilgan rasmiy vakolatlarni bildirgan. Vaqt o'tib, bu atama davlat nomidan muzokara olib borish, davlat manfaatlarini himoya qilish va ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish san'atiga aylangan.

Vestfaliya tinchlik shartnomalari diplomatiyaning tarixiy rivojlanish nuqtasi hisoblanadi. Bu kelishuvlar natijasida davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va davlatlarning tengligi prinsiplari xalqaro tizimning asosiy me'yorlariga aylandi. Diplomatiya esa ushbu tamoyillarni amalda ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida shakllandi.

Hans Morgentau diplomatiyani "milliy manfaatlarni kuch orqali emas, balki muzokara va kelishuv orqali ta'minlash vositasi" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, diplomatiyaning asosiy vazifasi kuchlar muvozanatini saqlab va urush ehtimolini minimal darajaga tushirishdan iborat. Bu yondashuv XIX–XX asrlarda Yevropa diplomatiyasining asosini tashkil etgan.

Genri Kissinjer ham an'anaviy diplomatiyani tarixiy tajriba va geosiyosiy realizm bilan bog'laydi. Uning "Diplomacy" asarida uni davlat manfaatlari va kuchlar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan amaliy siyosiy mexanizm sifatida talqin qiladi va Vestfaliya tizimi bunda asosiy rol o'ynaydi.

Vestfaliya tinchlik shartnomalari 1648-yilda imzolangan. Diplomatiyaning tarixiy rivojlanish nuqtasi hisoblanadi. Bu kelishuvlar natijasida davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va davlatlarning tengligi prinsiplari xalqaro tizimning asosiy me'yorlariga aylandi. Diplomatiya esa ushbu tamoyillarni amalda ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida shakllandi.

XIX asrda bo'lib o'tgan Vena kongressi (1814-1815) an'anaviy diplomatiyaning yorqin namunasidir. Bu kongressda Yevropa davlatlari urushdan keyingi tartibotni yopiq muzokaralar orqali belgilab olgan. Jamoatchilik bu jarayonga jalb qilinmagan, qarorlar va shartnomalar faqat elchilar va monarxlar ishtirokida qabul qilingan.

XX asr boshlarida ham bu yondashuv davom etdi. Masalan, Birinchi jahon urushi arafasida tuzilgan maxfiy ittifoqlar va kelishuvlar (jumladan, Sykes–Picot bitimi) an'anaviy diplomatiyaning yopiq usuli xalqaro mojarolarga qanday zamin yaratganini ko'rsatdi. Keyinchalik Aqsh prezidenti Vudro Vilson tomonidan ilgari surilgan "ochiq diplomatiya" siyosati aynan bu tartibga javob sifatida namayon bo'ldi.

Sovuq urush yillarida diplomatiya o'zining klassik funksiyalarini saqlab qolgan holda, yangi geosiyosiy sharoitga moslashdi. AQSH va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi qarama-qarshilik fonida diplomatik yo'llar urushning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etdi.

XX asr oxiriga kelib an'anaviy diplomatiyaning strukturaviy cheklovlari tobora yaqqol namoyon bo'la boshladi. Axborot oqimlarining tezlashuvi, ommaviy axborot vositalarining kuchayishi va jamoatchilik fikrining siyosiy qarorlarga ta'siri xalqaro munosabatlarda maxfiylikni chekladi. Davlat bo'lmagan aktorlar — transmilliy kompaniyalar, NNTlar va Media tarmoqlari xalqaro jarayonlarga faol aralasha boshladi. Diplomatiya endilikda faqat elchilik aloqalari va tashqi ishlar vazirliklarining faolityati bilan bilan cheklanib qolmay, kengroq ijtimoiylashgan va axborot muhitida amalga oshiriladigan jarayonga aylandi. Aynan shu nuqtada an'anaviy klassik diplomatiya o'zining moslashuvchanlik chegarasini kesib o'tdi.

Texnologik rivojlanish diplomatiyaning vaqt bilan munosabatini tubdan o'zgartirdi. Klassik diplomatiyada axborot almashinuviga haftalar, ba'zan oylar ketgan bo'lsa, bugungi kunda siyosiy qarorlar, davlat rahbarlarining nutqlari va tashqi siyosatdagi pozitsiyalar soniyalar ichida jahon miqyosida yoyilmoqda. Bu holat diplomatik bayonotlarning mazmuni va shakliga ham ta'sir etmoqda.

Globallashuv diplomatiyadagi davlat monopoliyasini sezilarli darajada zaiflashtirdi. Transmilliy kompaniyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ekspert tarmoqlari va hatto alohida shaxslar xalqaro siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsata boshladi. Masalan, iqlim diplomatiyasi sohasida "Greenpeace" yoki "Climate Action Network" kabi nntlar xalqaro muzokaralarda kuchli ta'sirga ega aktorlarga aylandi. 2015-yil dekabrda BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi (UNFCCC) doirasida qabul qilingan Parij kelishuvi bo'yicha

muzokaralarda ushbu tashkilotlarning ishtirokchi davlatlar delegatsiyalarining pozitsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Texnologik taraqqiyot ommaviy axborot vositalarini xalqaro jarayonlarning mustaqil aktoriga aylantirdi. CNN, BBC World, Sky News, Euronews, Al Jazeera va boshqa shu kabi global media tarmoqlari diplomatik inqirozlarni real vaqt rejimida yoritish orqali davlatlarning tashqi siyosatdagi maqsadli rejalarini o‘zgartirib yubormoqda. Xalqaro munosabatlar nazariyasida bu holat "CNN effekti" (The CNN Effect) deb ataladi. Bu jarayon quyidagicha yuz beradi: Global medialar voqealarni real vaqt rejimida (24/7) va emotsional bo‘yoqlar bilan yoritishi natijasida, siyosatchilar uzoq va maqsadli o‘ylangan qarorlar qabul qilish o‘rniga, jamoatchilikni tinchlantirish uchun shoshilinch qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lishadi. Misol sifatida 1999-yildagi “Kosovo inqirozini” keltirish mumkin. Kosovoda serb rahbariyati tomonidan alban aholisiga qarshi o‘tkazilgan “genotsid” (ethnic cleansing) amalga oshirilayotgan edi. Bu paytda ommaviy axborot vositalari orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri reportajlar uzatildi: po‘lat yukli poyezdlar, qochqinlar kolonnasi, portlashlar tun-u kun efirga uzatib borildi. Natijada jamoatchilik basimi bilan boshqa davlatlar kuzatuvchi bo‘lib qolishni xohlashmadi, zudlik qaror qabul qilish zaruratga aylandi. Boshqa holatlarda, harbiy harakat uchun BMT xavfsizlik kengashi rezolyutsiyasi yoki parlament tasdig‘i kerak edi. Lekin ekranlardagi “emotsional bosim” shu darajada kuchli ediki, AQSH prezidenti Bill Klinton va Buyuk Britaniya Bosh vaziri Toni Bler bir kechada qarorni tasdiqlashdi va NATO xavodan zarba boshladi.

Yuqoridagi jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv va texnologik inqilob an’anaviy diplomatiyani nafaqat boyitib bordi, balki unga jiddiy bosim ham o‘tkazdi. Akkreditatsiya, diplomatik immunitet va protokol kabi klassik institutlar saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, ularning funksional ahamiyati qayta ko‘rib chiqishni majbur etmoqda. Diplomatiya endilikda faqat muzokara stoli atrofida emas, balki raqamli makonda ham olib borilmoqda.

Bugungi kunda katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, algoritmik tahlil va sun’iy intellektdan foydalanish diplomatiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu bosqichda qarorlar tobora ko‘proq ma’lumotlarga tayanadi va ayrim jarayonlar qisman avtomatlashtirilmoqda.

Kuzatilayotgan o‘zgarishlar faqat muloqot shakllari bilan cheklanib qolmayapti. Algoritmga asoslangan diplomatiyaning markazida katta hajmdagi ma’lumotlar — Big Data turadi. Diplomatik vakolatxonalar, razvedka tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar va ochiq manbalar orqali yig‘ilgan axborotlar tashqi siyosiy prognozlashda tobora faol qo‘llanilmoqda. Bu holat diplomatik axborotning mazmuni va undan foydalanish usullarini sezilarli darajada o‘zgarishiga olib kelmoqda. Sun’iy intellekt algoritmik diplomatiyaning eng bahsli jihatlaridan biri hisoblanadi. “AI” tizimlari diplomatik qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilmaydi, biroq qaror qabul qiluvchilar uchun muqobil variantlar, xavf tahlili va strategik tavsiyalarni ishlab chiqadi. Shu ma’noda, sun’iy intellekt diplomatik jarayonda ko‘rinmas, ammo muhim yordamchi rolini bajarmoqda.

Diplomatik qarorlar qanday ishlab chiqilishi masalasining o‘zi ham jiddiy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Algoritmga asoslangan diplomatiyada tashqi siyosiy qarorlarni ishlab chiqishda statistik modellar, prognoz algoritmlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yondashuv sifatida tushuniladi. Raqamli diplomatiya asosan davlatlarning ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali tashqi auditoriya bilan muloqotini ifodalasa, algoritmik diplomatiya qarorlarning ichki tayyorlanish mexanizmlarida ishtirok etadi. Bu jarayonda axborotni yig‘ish, uni qayta ishlash, muqobil variantlarni solishtirish va ehtimoliy oqibatlarni baholash markaziy o‘ringa chiqadi. Algoritmik vositalar katta hajmdagi siyosiy va ijtimoiy ma’lumotlarni tahlil qilib, xalqaro vaziyat rivojining mumkin bo‘lgan ssenariylarini aniqlashga yordam beradi. Natijada diplomatik qarorlar yanada hisob-kitobli va asoslangan ko‘rinish kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar va xulosani ilgari suriladi: An'anaviy diplomatik institutlarni saqlash zarur. Akkreditatsiya, kommyunike, elchilik va persona non grata mexanizmlari xalqaro barqarorlikning asosiy tayanchi bo'lib qoladi. Raqamli va algoritmik vositalar esa ularni to'ldiruvchi element sifatida ishlatilishi lozim.

Raqamli va algoritmik vositalardan uyg'un foydalanish muhim. Tezkorlik va samaradorlikni oshirish uchun raqamli monitoring, Big Data va sun'iy intellekt klassik diplomatik jarayonlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llanishi kerak.

Etik va huquqiy me'yorlarga e'tibor kuchaytirilishi zarur. Algoritmik tavsiyalar siyosiy qarorlarni shakllantirishda javobgarlik va shaffoflik tamoyillari bilan muvozanatda bo'lishi shart. Diplomatik institutlar va xalqaro huquq yangi texnologik realiyalarga moslashishi lozim.

Norasmiy va innovatsion kanallarni rivojlantirish lozim. "Track II diplomacy" va onlayn norasmiy muloqotlar rasmiy diplomatiya bilan uyg'unlashib, qaror qabul qilish jarayonini boyitadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli va algoritmik diplomatiyadan samarali foydalanish nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki mavjud diplomatik institutlarning moslashuvchanligiga ham bevosita bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekiston tashqi siyosati uchun raqamli diplomatiyani joriy etish masalasi bosqichma-bosqich va ehtiyotkor yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston sharoitida algoritmik tahlil qaror qabul qilish jarayonining yagona manbaiga aylanmasligi kerak. Algoritmlar taqdim etgan tavsiyalar insoniy tahlil, diplomatik tajriba va siyosiy mas'uliyat bilan uyg'un holda baholanishi muhim. Aynan shu yondashuv siyosiy xatoliklar xavfini kamaytiradi hamda etik va huquqiy javobgarlikni saqlab qolishga imkon beradi.

O'zbekiston uchun Markaziy Osiyo makonida raqamli diplomatiya sohasida umumiy yondashuvlarni shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, raqamli xavfsizlik, "cyber diplomacy" va ma'lumotlar suvereniteti masalalarida qo'shni davlatlar bilan tajriba almashish va qo'shma tashabbuslarni ilgari surish mumkin. Bunday hamkorlik nafaqat mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki O'zbekistonning xalqaro maydondagi zamonaviy va konstruktiv diplomatik imijini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot an'anaviy diplomatiyadan raqamli va algoritmik diplomatiyaga o'tish jarayonini kompleks tahlil qildi, xalqaro amaliy misollar bilan mustahkamladi hamda strategik, etik va institutsional tavsiyalarni ishlab chiqdi. Ish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, davlatlarning tashqi siyosatini shakllantirish va raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun muhim ilmiy poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Morgenthau, H. J. Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. New York: Alfred A. Knopf, 1948.
2. Kissinger, H. Diplomacy. New York: Simon & Schuster, 1994.
3. Nye, J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: PublicAffairs, 2004.
4. Berridge, G. R. Diplomacy: Theory and Practice. 5th ed. London: Palgrave Macmillan, 2015.
5. Baylis, J., Smith, S., Owens, P. The Globalization of World Politics. Oxford: Oxford University Press, 2017.
6. Bjola, C., Holmes, M. Digital Diplomacy: Theory and Practice. London: Routledge, 2015.
7. Manor, I. The Digitalization of Public Diplomacy. London: Palgrave Macmillan, 2019.
8. Hocking, B., Melissen, J. Diplomacy in the Digital Age. The Hague: Netherlands Institute of International Relations "Clingendael", 2015.
9. Kahn, R. "Big Data and Foreign Policy Decision-Making." Foreign Policy Analysis, Vol. 15, No. 3, 2019.